O’QUVCHILARNI MATN BILAN ISHLASHGA O’RGATISHDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIY MOHIYATI

Qurbanova Ziyodaxon Komiljon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti magistranti
Gmail:ziyodaxonqurbanova@gmail.com

Annotasiya: *Hozirgi kunda boshlang‘ich ta’limda o‘qitishning eng samarali usulllaridan ta’lim-tarbiya jarayonida multimedia-texnologiyalaridan foydalanish bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini tashkil etishda bu usulning ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim sifatii, maorif, ta’lim muassasalari, savodxonlik, multimedia texnologiyalar, axborot, gipermatn tizimlar, gipermedia tizimlari multimedia.*

Jahon mamlakatlarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham ta’lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarish masalasi davlatning maorif sohasidagi asosiy siyosatiga aylanib bormoqda. Chunki mamlakatning taraqqiyoti bevosita undagi inson kapitali bilan bog‘liqdir. Mamlakatimiz ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning qobiliyat va iqtidorlarini 1-sinfdan boshlab aniqlash va rivojlantirish, ularning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro baholash dasturlari va tanlovlarida ishtirok etishini ta’minlash dasturi ham ishlab chiqildi. Mazkur dastur ta’lim sifatini oshirish, xalqaro aloqalarni rivojlantirish, o‘quvchi-yoshlarning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish masalalarini nazarda tutadi.

Hozirgi kunda ta’lim berishnig eng samarali usuli bu ta’lim-tarbiya jarayonida multimedia-texnologiyalaridan foydalanish istiqbolli va mashxur yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinflarda o‘quv jarayonini tashkil etishda bu usulning ahamiyati kundan kunga ortib bormoqda. Multimedia-texnologiyalarining asosiy maqsadi – tovush, video, animatsiya va boshqa vizual effektlar (Simulation) bilan ta’minlangan dasturiy maxsulotlarni yaratishdan iboratdir. Tadqiqotlarga ko‘ra birinchi bo‘lib 1945 yilda amerikalik olim Vanniver Bush "MEMEX" nomli xotirani tashkil kilish konsepsiyasini taklif qilgan, bu esa multimedia texnologiyalarini rivojlanishining asosiy g‘oyaviy sababi bo‘ldi. Bunga ko‘ra, axborot qidirish jarayoni formal belgilar, ya’ni nomerlar, indekslar yoki alfabet tartibi bo‘yicha emas, balki axborotning mazmuniga qarab amalga oshirilishi ko‘zda tutilgandi. Texnologik taraqqiyot natijasida keyinchalik kompyuterda amalga oshirilganda gipermatn tizimlari, ya’ni matnli ma’lumotlar kombinatsiyalari bilan ishlash tizimini paydo bo‘lishiga olib keldi. So‘ngra gipermedia tizimlari,(ya’ni grafika, tovush, video va animatsiya bilan birgalikda ishlash tizimlari) rivojlanishiga sababchi bo‘ldiki, bulardan ta’lim tizimida foydalanish o‘z samarasini berdi. Gipermatn va gipermedia tizimlarining birgalikdagi rivojlanishi multimedia yo‘nalishining kelib chiqishiga olib keldi.

Bugungi kun ta’lim jarayonini multimediasiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa ta’lim jarayoniga nazar soladigan bo‘lsak kompyuter grafikasi va dizayn juda ham keng foydalaniladi. Bu usullar amaliyotda anchadan buyon qo‘llab kelinmoqda. Lekin yaratilayotgan ko‘plab dasturlar, roliklar, dizaynlarning asosiy qismi kinofilmlar, multfilmlar, web-saytlar uchun yaratilayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Maxsus saytlarda boshlang‘ich sinflar uchun mavzulashtirilgan multimediali darsliklarning kamligi, mavjudlari ham aniq bir fanni mavzularini to‘la yoritib bera olmasligi boshlang‘ich sinflar uchun multimediali dasturlarni tayyorlash va uni sifatini oshirish masalalariga katta ahamiyat qaratishimiz kerak. Lekin boshlang‘ich sinflar uchun yangi yaratilayotgan elektron qo‘llanmalar ichiga kiritilgan matnli yozuvlar, rasmlardan hozirda grafikaning eng zamonaviy yo‘nalishi bo‘lgan roliklarning yaratilishi saytlarga va shunga tegishli bo‘lgan narsalarga qiziqishni oshiradi. Boshlang‘ich sinflarda matn bilan ishlashga o’rgatishda multimediali vositalardan foydalanishning multimedia imkoniyatlaridan foydalanib o‘tilishi o‘qituvchilarga bir qancha qulayliklar tug‘diradi.

O’quvchilarni matn bilan ishlashga o’rgatishda multimediali vositalardan foydalanishning ijtimoiy mohiyati quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga egadir:

- differensial va individual o‘qitish jarayonini tashkil qilishi;
- ta’lim jarayonini baholash, teskari aloqa bog‘lashi;
- o‘zini-o‘zi nazorat qilish va tuzatib borishi;
- o‘rganilayotgan mavzularni namoyish etishi va ularning dinamik jarayonini ko‘rsatishi;
- mavzularni yoritishda animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalanishi;
- o‘quvchilarga mavzuni o‘zlashtirish uchun strategik ko‘nikmalar hosil qilishi va hokazo.

Tayyorgarlik bosqichida mavzu matnini yozish, ko‘rgazmali va ma’lumotli materiallarni tayyorlash, interfeys eskizlarini va o‘quv dasturining ssenariyasini, shuningdek alohida bloklarning ssenariyalarini (animatsion fragmentlar, videofragmentlar, kompyuterli modellashtirishni amalga oshiruvchi dasturlar, bilimlarni tekshirish bloklari va boshqalar) yaratish mo‘ljallanadi.

Shuning uchun turli xil usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bularga shriftlar yordamida ajratish, grafika, rasmlar va multiplikatsiyalarni ishlatish kirishi mumkin. Bu maqsadda natijalarni chiqarishni kuchaytirish mumkin: asosiy formulalar ruyxatini keltirish, asosiy qoidalarni yoritish, jadvallar tuzish. Matnga keyinchalik katta o‘zgarishlar kiritmaslik uchun mukammal tahrirlanadi.

Hulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni matn bilan ishlashga o’rgatishda multimediali vositalardan foydalanishning ijtimoiy mohiyati juda katta bo‘lganligi sababli bu masalaga jiddiy e’tibor qaratish lozim.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон)

2. Абдуқодиров А.А., Бегматова Н.Х. Мактабгача таълим муассасаларида мультимедиа технологиясидан фойдаланиш услубиёти (ўқув-услубий қўлланма). – Қарши: Насаф, 2011. - 257 б.